



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-aprel*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 937 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 9 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 928 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 507,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 256,3 mlrd. so'mni (114,6 % ni tashkil qildi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 250,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 239,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3 507,0	106,4
Navoiy sh.	860,4	108,5
Zarafshon sh.	387,1	108,3
G'ozg'on sh.	32,7	106,6
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	114,5	107,2
Qiziltepa t.	435,4	105,2
Navbahor t.	202,6	104,8
Karmana t.	624,4	102,2
Nurota t.	151,2	106,1
Tomdi t.	37,1	103,4
Uchquduq t.	179,7	106,3
Xatirchi t.	481,9	108,8

2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Xatirchi tumani (108,8 %), Navoiy shahri (108,5 %) va Zarafshon shahri (108,3 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)




So'nggi 5 yillikda (2020 – 2024 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda (113,2 %) kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 3 507,0 mlrd . so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,4 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining ulushi , 2024 yil yanvar-aprel (foizda)





Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 24,5 % bilan 860,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,9 % bilan 32,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm

Navoiy sh.	860,4
Karmana t.	624,4
Xatirchi t.	481,9
Qiziltepa t.	435,4
Zarafshon sh.	387,1
Navbahor t.	202,6
Uchquduq t.	179,7
Nurota t.	151,2
Konimex t.	114,5
Tomdi t.	37,1
G'ozg'on sh.	32,7




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 250,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 5,8 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,6 % ni tashkil etdi va 256,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,3 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha, Karmana tumani (99,9 %) G'ozg'on shahri (99,7 %), Uchquduq tumani (99,5 %), Tomdi tumani (99,3 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (18,5 %), Zarafshon shahri (12,2 %), Navbahor tumanida (11,0 %) kuzatildi.

7,3 %



92,7 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-aprel oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 254,4 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 104,5 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (5 310,8 ming. so'm), Uchquduq tumani (4 562,0 ming. so'm) va Karmana tumani (4 488,5 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas. G'ozg'on shahrida dexqon va chorva bozori mavjud emas.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

Uyushmagan savdo mlrd.so'm	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	239,5	114,3
Navoiy sh.	53,6	115,7
Zarafshon sh.	9,3	103,1
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	12,2	104,5
Qiziltepa t.	22,4	107,3
Navbahor t.	2,8	116,5
Karmana t.	73,1	114,8
Nurota t.	13,8	106,3
Tomdi t.	1,9	112,2
Uchquduq t.	5,8	118,7
Xatirchi t.	44,6	123,9


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-aprel)

Izoh G'ozg'on shahrida bozorlar mavjud emas














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 239,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lu-motlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 132,1 mlrd. so'mni (114,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 107,4 mlrd so'mni tashkil etdi (112,4 %).













2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 132,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>72,8 mlrd. so'm</p>  <p>55,1 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>15,9 mlrd. so'm</p>  <p>12,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>9,6 mlrd. so'm</p>  <p>7,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>6,2 mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>3,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</p> <p>5,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)</p> <p>1,8 mlrd. so'm</p>  <p>1,4 %</p>	

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 107,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 87,9 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 18,8 mlrd. so'mni, otlar – 0,3 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>53,9 mlrd. so'm</p>  <p>50,2 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>17,7 mlrd. so'm</p>  <p>16,5 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>16,3 mlrd. so'm</p>  <p>15,1 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>13,9 mlrd. so'm</p>  <p>13,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>4,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyونlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,05 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,04 mlrd. so'm</p>  <p>0,05 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 087 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 086 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	148,1	105,1
Navoiy sh.	49,1	103,7
Zarafshon sh.	23,7	135,5
G'ozg'on sh.	0,6	105,2
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	2,5	108,3
Qiziltepa t.	9,0	82,7
Navbahor t.	17,8	90,5
Karmana t.	25,7	104,9
Nurota t.	2,0	109,1
Tomdi t.	0,6	104,2
Uchquduq t.	6,1	111,4
Xatirchi t.	11,0	107,0

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 148,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
Navoiy viloyati	1 141,0	100,0
Navoiy sh.	837,6	73,4
Zarafshon sh.	3,9	0,3
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	3,3	0,4
Qiziltepa t.	13,0	1,1
Navbahor t.	2,4	0,2
Karmana t.	267,7	23,5
Nurota t.	3,8	0,3
Tomdi t.	0,02	0,002
Uchquduq t.	3,8	0,3
Xatirchi t.	5,5	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (837,6 mlrd. so'm), Karmana tumanida (267,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 141,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 489,7 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 114,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 651,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 129,3 %) tashkil qildi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,

mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 956,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,8 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 801,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex tumani va Uchquduq tumanida kuzatildi.

2024- yil 1-may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 504 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 498 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	956,6	110,8
Navoiy sh.	443,0	109,0
Zarafshon sh.	40,5	106,2
G'ozg'on sh.	0,1	112,2
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	2,5	110,0
Qiziltepa t.	148,9	143,2
Navbahor t.	32,4	79,8
Karmana t.	199,3	104,4
Nurota t.	12,5	111,7
Tomdi t.	1,4	109,8
Uchquduq t.	35,4	114,3
Xatirchi t.	40,6	108,9